

**Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya  
ilmiy – amaliy tibbiyat markazi va  
Toshkent shaxar Olmazor tumani ichki ishlar organlarini muvofiqlashtirish  
bo‘limi bilan hamkorlikda tashkil etilgan  
“GENDER ZO‘RAVONLIK”  
mavzusidagi ma’naviy-ma’rifiy anjuman**

**BAYONNOMASI**

**O’tkazilgan vaqt** 22 noyabr

Toshkent shaxar

**Qatnashdi** 285 ta ishtirokchilar

**O’tkazilish joyi** Anjuman respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazining anjumanlar zalida bo‘lib o‘tdi.

**Tadbir ishtirokchilari** Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazining 72 ta xodimi, Olmazor tumani ichki ishlar organlarini muvofiqlashtirish bo‘limi xodimlaridan 22 ta xodim

Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi kafedrasи professor o‘qituvchilari jamoasi, professor Irsaliyeva F.X., katta o‘qituvchi, PhD Alikulova D.Y., kafedra assistentlari: Nizomov Q.F., Baybekova V.F., Asalov G.S., Abdullayeva B.X., Mirpayziyeva M.A., To‘rayev N.T., Alimova N.N., Mambetniyazov K.S., Akromov A.T., Yuldasheva U.X., Temirova M.B., Erkinov N. G‘.

**Tadbirdan ko‘zlangan maqsad** Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab xar uchinchi ayol jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lmoqda. BMT Bosh Kotibi xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish xalqaro kuni munosabati bilan qilgan bayonotida “Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik global pandemiya tusini olmoqda... Bu ochiq, haqqoniy va barqaror rivojlanish yo‘lidagi jiddiy to’siqdir”, -deya ta’kidlagan edi. Oilaviy kelishmovchiliklar, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, unga yechim topish hamda huquqbazarliklarni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 25 noyabrъ-10 dekabryъ kunlari “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kun” aktsiyasi o’tkazilishi belgilandi.

Shunday ekan, bugungi anjuman o'tkazishdan bizning maqsadimiz Birlashgan millatlar tashkilotining "2030 yilgacha ayollarga nisbatan zo'ravonlikga barham berish uchun birlashamiz" shiori ostidagi tashabusini barcha xotin qizlarga targ'ib etib, ayollarga nisbatan zo'ravonlikni butunlay tugatish uchun targ'ibotni kuchaytirish, ayollarning qonuniy manfaatlarini himoyalash bo'yicha harakatlarni kuchaytirish, bilim almashish va innovattsiyalarga oid global harakatlarga chaqirishdir.

Anjumanni Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazining direktori professor Razikova Ilmira Sadullayevna ochib berdi. Ilmira Sadullayevna o'z so'zida Ayollarga nisbatan zo'ravonlik bu - jins



belgisiga asoslangan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zararga olib keladigan yoki ayollarga aziyat yetkazadigan, shuningdek, bunday harakatlarning tahdidlari jamiyat yoki shaxsiy hayotda bo'lsin, majburlash yoki ayollarga nisbatan zo'ravonlik - inson huquqlarining eng keng tarqalgan buzilishlaridan biridir deya gender zo 'ravonlikka ta'rif berdi. Qolaversa, mamlakatimizda ham keyingi vaqtarda

xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ularga yangi ish o'rirlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, xotin qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilayotgani haqida gapirib o'tdi. Shu munosabat bilan og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan, oilaviy muammolar va turmushida turli xil zo'ravonlikka duch kelgan xotin-qizlarni ruhiy qo'llab-quvvatlash va ularga motivatsiya berish, zuravonlikka qarshi targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida jamoatchilik e'tiborini ushbu masalaga jalb etishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirishda markaz xodimlarining ham rolini oshirish, har bir shaxsni zo'ravonlikka befarq bo'lmaslikka, bu haqida sukut saqlamaslikka qaratilgan turli targ'ibot ishlari tashkil etishda faol bo'lishga chaqirdi.

SHundan so‘ng so‘z navbatini Toshkent tibbiyot akademiyasining Yoshlar masalalari va ma’naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, tibbiyot fanlari doktori, professor **Bobomuratov T. A.** ga berildi. Bobomuratov T. A. o‘z so‘zida keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda gender tenglikni ta’minalash tizimini takomillashtirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani haqida gapirdi. Shu bilan birga xotin qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, ularni kasbga o’qitish va bandligini ta’minalash, og’ir turmush sharoitidagi xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash hamda gender tenglikni ta’minalash dolzarb vazifalar hisoblanishini bir qancha misollar bilan tushuntirdi.



Anjumanning yana bir mexmoni TTA, Umumi Gigiyena kafedrasini dotsenti, t,f,n. Lola Kabulovna so‘zga chiqib, kishilarga nisbatan muayyan bir jinsga mansub bo‘lganligi sabab ishlatilgan har qanday zo‘ravonlik, bir so‘z bilan aytganda, gender zo‘ravonligining turli shakllari mavjud bo‘lib, hozirda butun dunyo bo‘ylab



millionlab odamlarga ta’sir o’tkazayotgan doimiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Mazkur muammo alohida shaxslar, oilalar, hamjamiyatlar va, umuman, jamiyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda, iqtisodiy taraqqiyot hamda inson huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lida to‘siq bo‘layotganini ta’kidladi.

### **Navbat spikerlarga berildi**

Olmazor tumani ichki ishlar organlarini muvofiqlashtirish boshqarmasining xotin qizlar masalasi bilan ishslash bo‘yicha katta inspektor, podpolkovnik **Meyliyeva S. SH** - “**Xotin - qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik**” mavzusida doklad o‘qidi. Oiladagi zo‘ravonlik — bu gender zo‘ravonlikning, odatda, turmush o‘rtoqlar, juftliklar yoki oila a’zolari o‘rtasidagi yaqin munosabatlar doirasida sodir bo‘ladigan shakli. Bu holat

jismoniy, hissiy va jinsiy zo'ravonlik hamda ruhiy qyinoq va moliyaviy holatini suiiste'mol qilish kabi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Oiladagi zo'ravonlik, jinsidan qat'i nazar, har qanday turdagи munosabatlarda sodir bo'lishi mumkin, biroq global miqyosda to'plangan dalillar shuni ko'rsatadiki, undan, asosan, ayollar aziyat chekadi. Dokladda aynan tazyiq va zo'ravonlik tasnifi haqida ma'lumot berdi.

Olmazor tumani ichki ishlar organlarini muvofiqlashtirish boshqarmasining katta inspektori, podpolkovnik **Jo'rayeva Q. X.** - “**Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida**”gi qonunning mazmun moxiyati mavzusida doklad o'qidi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar va bitimlarga rioya qilishdan tashqari, gender zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik kiritishning ko'plab jiddiy sabablari mavjud. Gender zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash potensial tajovuzkorlarni tiyib turuvchi omil sifatida xizmat qilib, jabrlanganlar uchun yanada ishonchli huquqiy himoyani ta'minlashi mumkin. Huquqbuzarlarni qilmishi uchun javobgarlikka tortish orqali bunday zo'ravonlikka yo'l qo'yilmasligi va unga toqat qilinmasligi to'g'risida tushuncha hosil qilinadi. Shuningdek, bu jabrlanganlarni huquqiy himoya, masalan, sudlarning taqiq orderlari va zo'ravonlik davom etishining oldini olishga yordam beradigan himoya orderlarining boshqa shakllari bilan ta'minlashi mumkin.

Jinoiy javobgarlik belgilash oiladagi zo'ravonlikning barcha xususiyatlarini, jumladan, sharoiti, takrorlanuvchanligi, majburiy nazorati, motivlarini hisobga olish imkonini beradi. Bu ushbu jinoyatning og'irlik darajasini baholash va zo'ravonlik sodir etayotgan shaxs jamiyat uchun xavfli deb topilgan taqdirda, huquqlarni tiklash yoki qamoqqa olish tartibini qo'llashni aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, ichki ishlar organlari, mehnatni muhofaza qilish organlari, ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlarining hamda sog'liqni saqlash muassasalari va xotin-qizlar idoralari mas'ul hisoblanashi haqida ma'lumot berdi.

Shundan so 'ng davra suxbati bo 'lib o 'tdi, hamma hodimlar o 'zlarini qiziqtirgan savollarini berishdi davra suxbati ancha vaqt davom etdi

Anjuman xulosasi Gender zo'ravonlik - insoniyatning jinoyat sifatida ta'qib qilinishi zarur bo'lgan falokatidir. Jamiyatda zo'ravonlikni jazosiz qoldirish va uning me'yoriy holat sifatida qabul qilish madaniyati davlat tomonidan aniq choralar ko'rlishini talab qiladi. O'zbekiston bugungi kunda ushbu sohadagi jazo choralarini qayta ko'rib chiqayotgan ekan, bu mamlakat ayollari va bolalarini himoya qilish uchun chora ko'rishning ayni vaqtida. Biz O'zbekiston bu borada to'g'ri qaror qabul qilishiga ishonamiz.



**Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya  
va klinik immunologiya ilmiy – amaliy  
tibbiyot markazi direktori t.f.d., professor**

**RAZIKOVA I. S.**